

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzu

“Qishloq xo‘jaligi fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Suv manbalari va suv ta‘minoti tarmoqlarida suv yo‘qotishlarini kamaytirish va tarmoq bosimlarini monitoring qilish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - tarmoqdagi yashirin (noqonuniy ulanishlar, yer osti sizib chiqishlar) va ochiq (avariyalar, eskirgan quvurlar) yo‘qotishlar o‘rganilib, ularni aniqlashning tezkor algoritmlari ishlab chiqiladi; - avariya xavfi yuqori bo‘lgan nuqtalarni aniqlash bo‘yicha GIS asosidagi xarita tayyorlandi; - IoT sensorlari yordamida bosim o‘zgarishlarini kuzatuvchi aqlli monitoring tizimi prototipi yaratiladi; - bosimning keskin pasayishi yoki ko‘tarilishi aniqlanganda darhol xabar beruvchi avtomatik ogohlantirish algoritmi ishlab chiqiladi; - quvurlar materiali, diametri, yoshi, ekspluatatsiya muddati, korroziya holati kabi omillar asosida tarmoqning ishonchlilik indeksi ishlab chiqiladi; - mamlakatimizda suv manbalari va tarmoqlaridan foydalanilayotganda 20-45% ichimlik suvini aholiga yetib borgunga qadar yo‘qotilmoqda, buning natijasida suv chiqarishga ishlatilgan elektr energiyasidan juda katta qarzdorliklar kelib chiqmoqda. Loyiha suv resurslarini tejash va energiya samaradorligini oshirishda xizmat qiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.